



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/QEHQ3168

## O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETYENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY OMILLARNING O'RNI

**Tursunoy Yusupova Axmedovna**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU*

*O'zbek tili va adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi*

*E-mail: tursunoyyusupova@navoiyuni.uz*

*ORCID ID: 0000-0001-9434-5189*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada til ta'limining maqsad va vazifalari, ona tili darslarida o'quvchilarga nutqiy ko'nikma, nutqiy malaka nutqiy kompetensiya komponentlarining lingvodidaktik asoslanishini o'rgatish, og'zaki va yozma savodxonlikni o'stirish, ijodiy, ilmiy va kreativ fikrlash hamda o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo'yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'lumi, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, ta'limiy topshiriqlari, ilg'or texnologiyalar, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, tasviriy ko'rgazmalar, matn turlari ustida ishlash.

### **Annotation**

This article analzes the scientific views of linguists, methodologists, and psychologists on the goals and objectives of language education, the teaching of speech skills and the linguists and didactic basis of speech competence in native language classes, the development of oral and written literacy, creative, scientific, and creative thinking, and the improvement of students' thinking skills.

**Keywords:** mother tongue education, oral and written literacy, speech skills competence, educational tasks, advanced technologies, creative approach, creative thinking, visual exhibitions, work on text types.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yosh avlodga chuqur bilim berish, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu jarayon ona tili o'qituvchilaridan o'zlarining har bir o'tiladigan darsini ilg'or zamonaviy metodlar va grammatik mashqlar, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishi orqali o'qitishning samarali yechimlarini topish va nazariy va amalai dalillar asosida xulosalash bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil tafakkur qilish, kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish hamda o'zining fikrini ham og'zaki, ham yozma shakllarda aniq, sermazmun, tushunarli, savodli tarzda ifodalashni o'rgatishdan iborat. Shu bois ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini o'quv topshiriqlari asosida rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetentsiyalarning o'ziga xos o'rni muhim hisoblanib, uni rivojlantirishda



qator omillarning o'rni ahamiyatli. Nutqiy kompetensiyalar rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Nutq turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Og'zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa muayyan masofaning bo'lishi nazarga olinadi. Shunga ko'ra ularning izchilligi, to'liq yoki noto'liqligi ham har xil bo'lishi tabiiy"<sup>84</sup>. Har bir o'quvchida, avvalo, og'zaki nutq rivojlanib borishi mumkin, biroq og'zaki nutqidagi fikrini, qarashini ifodalayotganida yozma nutq me'yorlariga amal qilishi hamda ikkala nutq shaklida ham fikrlar bayonining ketma-ketligi, izchilligi nazardan chetda qolmasligi kerak.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida mantiq, mazmun va ma'no bo'lishi bo'yicha ko'nikmalar ona tili darslarida shakllantiriladi. Binobarin, ulug alloma Abu Nasr Forobiy grammatika va mantiqning ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Grammatika odamlar nutqini to'g'rilagani kabi – u shuning uchun ham vujudga kelgandir, – mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo'lgan tafakkurni to'g'ri yo'lidan olib borishi uchun aqlni to'g'rilab turadi"<sup>85</sup>. O'quvchilar o'z nutqida mantiqan mushohada yuritib, mulohaza bildirishlari maqsadga muvofiq. Shu bois ular o'zining xotirasidagi so'z zaxirasini o'z nutqi orqali harakatga keltiradi.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda N.Bekniyazova so'z boyligini oshirish uchun so'zlash jarayoni bo'lishi zarurligini dalillash ucnun quyidagi fikr-mulohazalarni keltiradi: "Ruhshunos olim V.Penfild odam bosh miya po'stlogining chap yarim sharida joylashgan nutqiy faoliyat bilan bog'liq markaz va zonalar haqida fikr yuritar ekan, nutq uchun zarur harakatlarni tartibga soladigan Brok zonasiga e'tiborini qaratadi. Brok zonasasi esa buyumlarni atash markazi bilan ko'p marotaba bog'lanmas ekan, o'rganilayotgan so'zlarni nutqda qo'llash uchun bu zonada zarur dinamik stereotiplar hosil bo'lmaydi degan xulosaga keladi... So'zlash jarayonidagina sifatlarning ma'nosi va vazifasiga (funksiyasiga) ko'ra xotiraga tushirish va tanlash operatsiyalari hamda amallari bajariladiki, ayni shu operatsiya va amallar dinamik stereotipning shakllanishini ta'minlaydi"<sup>86</sup>. Demak, so'zlash uchun o'quvchi miyasida so'zlarning ma'nolari va ularning dinamik ko'rsatkichlari o'sib borishi hamda nutqda qo'llanib borishi nutqiy faoliyatga aylanishi nazarda tutildi.

So'zni o'rganish va undan foydalana olish jarayoni uning nimani ifodalastganini tushunib eshtish; so'zni esda saqlab qolish; muloqotning turli vaziyatlarida so'zni qo'llay olish qobiliyatini qamrab oladi. So'zni taqdim qilish uning fonetik, yozma va grammatik shaklini tanishtirishdan, ma'nosini,

<sup>84</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиши методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 4 б.

<sup>85</sup> Mahmudov N.v.b.Ona tili.O'rta ta'lismuassasalarining 11- sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik.– T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.-376.

<sup>86</sup> Бекниязова Н.Таълим қорақалпок тилида олиб бориладиган мактабларнинг бошланғич синфларида ўқувчилар сўз бойлигини ошириш: Номзод. дисс.автореферати.- Т.,1998.- 22 б.



qo'llanilishini tushuntirishdan iboratdir.<sup>87</sup> Shu nuqtayi nazardan, sintaktik birliklar, so'z birikmalarining bir-biriga mantiqiy bog'lanishini ham monologik, ham diologik matn tuza olishini, uni yozma ifodalash yuzasidan ko'nikmaga ega bo'lishini nazarda tutish zarur. Bu omillar takomili o'quvchilar matnlarni yozma savodxonlikka rioya qilib mustaqil yaratishida namoyon bo'ladi, kontekstni erkin tahlil qilishida sinovdan o'tadi.

B.O'rino boyevning qayd etishicha, "so'zlashuv nutqini xarakterlashda ko'zga tashlanadigan ikki tomon mavjuddir. Ulardan biri dialog bo'lsa, ikkinchisi monologdir".<sup>88</sup> So'zlashish jarayonida diologik nutqining mazmundorligi, suhbat olib borilishining mahsuldarligi uning monologik nutqi oldindan mukammal o'sib borganligidan dalolat beradi. So'zlashuv nutqining mazkur ikki tomoni nutq ishtirokchilar soni jihatdan farq qilsa-da, lekin bu nitqiy faoliyatlar bir-biri bilan bog'liq faoliyatlar sirasiga kiradi. "Dialog asli yunoncha dialogos (gaplashish, suhbatlashish) so'zidan olingan bo'lib, "shaxslararo suhbat va fikr almashuv" ma'nosini ifodalaydi. Dialog og'zaki nutqning nutq jarayonida bir yoki bir necha kishi ishtirok etgan nutqiy aloqaning muhim shaklidir"<sup>89</sup>. Jamiatning barcha jabhalarida, oilada, mahallada, dars jarayonida, mashg'ulotlarda ham dialog orqali fikr almashiniladi, bayon qilinadi. Dialog ijtimoiy hayotimizda foydalilaniladigan faol nutq turidir. Bu nutq turi asnosida so'zlovchi va tinglovchining muayyan maqsadi amalga oshadi, nutqiy kompetensiyaning tarkibiy komponentlari rivojlanib boradi.

Demak, nutqiy kompetensiyani o'quvchilarda rivojlantirish leksik birliklar, sintaktik birliklar, xususan, kiritmalarni nutqiy faoliyatda amaliy tomonlama qo'llashni o'rganishi va ulardan amaliy faoliyatda unumli foydalana olishi ularda mushohada yuritish jarayoni uchun asos vazifasini bajaradi. Shunday ekan, ularning ijodiy va mantiqiy fikrlashini belgilangan me'yorlar amal qilishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Амиров Р. Особенности синтаксиса казахской разговорной речи. – Алма-Ата, 1972. – 223 с.
2. Бекназрова Н. Таълим қорақалпок тилида олиб бориладиган мактабларнинг бошланғич синфларида ўқувчилар сўз бойлигини ошириш: Номзод. дисс. автореферати. – Т., 1998. – 23 б.
3. Mahmudov N. va boshq. Ona tili. O'rta ta'lif muassasalarining 11- sinfi va kasb- hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik.– Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 298 b.
4. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку. {на анг.яз} Учебной пособие для педагогических институтов И ф-тов иностранного языка. Л.Просвещение, 1975. – 323 с.
5. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди. 2009. – 244 b.

<sup>87</sup> Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку. { на анг.яз} Учебной пособие для педагогических институтов И ф-тов иностранного языка. Л.Просвещениэ, 1975.-312 с.

<sup>88</sup> Ўринбоев Б.Хозирги ўзбек тилида вокатив гап категорияси.– Тошкент, 1972.– 10 б.

<sup>89</sup> Амиров Р. Особенности синтаксиса казахской разговорной речи.– Алма-Ата, 1972.– 6 с.



6. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида воқеатив гап категорияси. – Т.: 2007. – 220 б.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/YXRM6508

## TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI

**Shodmonova Munira Burxonovna**

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*[shodmonovamunira@navoiy-uni.uz](mailto:shodmonovamunira@navoiy-uni.uz)*

*ORCID: 0000-0002-2485-3943*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola diagnostik suhbat usuli, undan pedagogik tadqiqot maqsadlarida foydalanishga bag'ishlangan. Shuningdek, suhbatdoshning individual psixologik xususiyatlarini, kasbiy qiziqishlari va moyilliklarini diagnostika qilishda uning afzalliklarini o'rGANADI.

**Kalit so'zlar:** diagnostik suhbat, o'qituvchi-eksperimenter, muloqot, ekstroversiya, introversiya, motivatsiya, filtrlangan savollar, nazorat savollari.

**Annotatsiya.** Данная статья посвящена методу диагностической беседы, использованию ее в целях педагогического исследования. В ней рассматриваются также ее преимущества в диагностике индивидуально-психологических особенностей, профессиональных интересов и склонностей собеседника.

**Ключевые слова:** диагностическая беседа, педагог-экспериментатор, общение, экстровертность, интровертность, мотивация, фильтрованные вопросы, контрольные вопросы.

**Abstract.** This article focuses on the diagnostic method of conversation and using it for purposes of pedagogical research. It also discusses its advantages in the diagnosis of individual psychological characteristics, professional interests and aptitudes of the interlocutor.

**Keywords:** diagnostic interview, teacher-experimenter, communication, extroversion, introversions, motivation, filtered questions, checklists.

Pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Buning uchun pedagog texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallaganli yetarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondoshish jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Ushbu o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo'llaridan biri ilmiy jihatdan asoslangan psixologik-pedagogik diagnostikadir. Bugungi kunda psixologik-pedagogik diagnostikaning o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi. Individual yondashish, o'quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini o'rGANISH shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rGANADI. Pedagogika diagnostika ta'lif samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik



И «ИСТОРИИ ВЧЕРАШНЕГО ДНЯ» Л.Н. ТОЛСТОГО	
<i>To'raqulova Nilufar Amirqulovna. DEGREES OF COMPARISON OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK</i>	498
<i>Türkan Mahmudzadə. MEHMET AKIF ƏRSOY MILLİ KIMLIK MƏSƏLƏSİ</i>	501
<i>Xamidullayeva Fotima Adxam qizi. XORIJIY TILNI O'RGANISHDA GAPIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	506
<i>Xoziyeva Iroda Zokirjon qizi. DAVLAT TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI (TOJIK TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)</i>	513
<i>Mohinur Akhmedova Ziyodulla Kızı. ORTAK TÜRK EDEBIYATI MI, MILLÎ EDEBIYAT MI? PARADIGMALAR ARASI DENGE ÜZERINE KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME: TÜRKİYE, AZERBAYCAN VE ÖZBEKİSTAN ÖRNEĞİ</i>	519
<i>Xatirə Bayramova. QARABAĞIN FÜZULİ RAYONUNUN HIDRONİMLƏRİNİN LEKSİK-SEMANTİK XÜSUSIYYƏTLƏRI</i>	527
<i>Davletova Shalola Bahodir qizi. XORXE LUIS BORXES ASARLARIDA EKZİSENSİALİZM</i>	536
<i>Ismailova Gulnoza Odiljon qizi. A CATEGORIZED AND STATISTICAL EXAMINATION OF RELIGIOUS TERMINOLOGY IN KUTADGU BILIG</i>	539
<i>Ro'ziyeva Aziza Bobirovna, Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi. 10-11-SINF O'QUVCHILARIGA SUN'İY INTELLEKT ORQALI MATN YOZISHNI O'RGATISH</i>	548
<i>Валида Шихалиева Надир кызы. НОВЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ИРАКСКО-ТУРКМЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ</i>	553
<i>Omonova Qunduz Alisher qizi. HOZIRGI TURKIY TILLARDA UCHRAYDIGAN VARIATIVLIK MUAMMOLARI VA TADQIQOT YONALISHLARI</i>	559
<i>Rahmatillayeva Nozima Nigmatilla qizi. IKKKINCHI TILNI O'QITISHDA IJTIMOIY VA LINGVISTIK XILMA-XILLIKNI QOLLAB - QUVVATLOVCHI (EQUITABLE) YONDASHUV</i>	562
<b>VI SHU'BA. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</b>	
<i>Tursunoy Yusupova Axmedovna. O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETYENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY OMILLARNING O'RNI</i>	576
<i>Shodmonova Munira Burxonovna. TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI</i>	579
<i>Kuldasheva Sanobar Xayotovna. RAQAMLI TEKNOKRATLASHUV SHAROITIDA QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH USULLARI</i>	587
<i>Iskandarova Gulbahor Turabayevna. XORIJLIKLARNING O'ZBEK TILINI O'RGANISHIDA SO'Z MA'NOLARINING O'ZLASHTIRISHI</i>	592

